

---

## Oltin devor (komediya)

Erkin Vohidov

### (Uch pardali komediya)

#### TANISHTIRUV

---

Sahnaga chiroyli kiyingan kelishgan bir yigit chiqadi. U Qilichbek.

**Qilichbek** — Assalomu alaykum. Bugungi davrani olib borish menga topshirilgan. Kechamiz hali uzok. Davrada hammaga navbat tegadi. Xonandalarimiz sozni sozlaguncha men sizlarga bir hikoya aytib bermoqchiman.

(Muzika)

Bu voqea yaqin kunlarda Taqa mahallasida bo‘lgan. Usha odamlar hozir ham bor. Mana ular: Mo‘min! (Qorovul hush-tagi ovozi keladi va miltiq osgan, fonus ko‘targan Mo‘min kiradi.) Yoshi oltmishlarda bo‘lsa kerak. Eski shahardagi do‘konga qorovul.

**Mo‘min** — Kim u bemahalda yurgan? (Qilichbekka) E-ha, sizmidingiz! Assalomu alaykum. Qani, yuring, choy qilib beraman, qovun so‘yaman... (Hushtagini chalib chiqib ketadi.)

**Qilichbek** — Abdusalom. Uning qirq yillik kadrdoni. O‘zi yamoqchi. Mo‘minning aytishicha, undan besh yosh kichik, o‘zining aytishicha, yetti yosh katta.

**Abdusalom** — (Qilichbekka) Akasi jonidan, mening gapimga ishonavering. U bekor aytibdi.

**Qilichbek** — Boshim kal, ko‘nglim nozik, degan gap, asli, shu kishi to‘g‘risida aytilgan. (Abdusalom chiqadi. Xurinisa kiradi.) Xurinisa. Mo‘minning xotini. Uni bekitiqcha kinnachilik qiladi, deganlar bekor aytibdi. Bu bir-ikkita ko‘rolmaganlar tarkatgan gap.

**Xurinisa** — A? Nima? Ha, mayli, mayli. (Chiqadi. Diloromning «Nodir» deb chaqirgan ovozi keladi, so‘ng o‘zi kiradi.)

**Qilichbek** — Dilorom. Abdusalomning qizi. O‘tmish-da bir shoir aytganday: chiqdi gulgun kiyibon, bo‘ldi kiyomat, hay-hay! Ana husnu ana qaddu ana komat, hay-hay!

**Dilorom** — Nodir, bu yoqqa! (Chiqadi. Nodir kiradi.)

**Qilichbek** — Nodir. Mo‘minning o‘g‘li. Usha qaddu qomat ishqida shoirlik dardiga giriftor bo‘lgan bir bechora.

**Nodir** — «U bir Dilorom!» (Chiqadi. Zuhra kira-di.)

**Qilichbek** — Zuhra. Mo‘minning kizi. Bu shayton kizda juda gap ko‘p. (Zuhra qah-qah

urib, chiqadi. Mat-lab kiradi.) Matlab. Bu yigitning Zuhrada ilinji bor. U hozir Arabistondagi bir qurilishda injener. U arab tilida boloxonador qilib so'ksa, bizning ba'zi chala mullalar, oyat o'qiyapti deb ko'zlariga yosh olishadi.

**Matlab** — Sog'indim, yorug' yulduzim. Qani bilsang eding, olis yurtlarda Senga intilganim, zor bo'lganlarim...

(Chiqadi. Saidmalik kiradi.)

**Qilichbek** — Saidmalik. Bir vaqtlar Darvozada zargarlik do'koni bor edi. Hozir xo'jalik ishlari bo'yicha muovin bo'lib ishlaydi. Lekin kamtarlik yuzasidan piyoda yuradi. (Saidmalik chiqadi. Shafoat kiradi.) Shafoat. Mabodo bozorda yurganingizda chap yuzida yo'lpashshadek xoli bor juvon yoningizda kelib: «Assalomu alaykum, mulla aka, sizga nima kerak?» deb so'rganmi? U Saidmalik zargarning ikkinchi xotini bo'ladi.

**Shafoat** — Uchta uzugimni zo'rg'a pulladim. Bugun bozor kasod. Hoy, xo'jayin, to'xtang, qayoqqa? (Chiqadi. Doktor kiradi.)

**Qilichbek** — Doktor. Bu odamni aslida doktor desa ham bo'ladi, demasa ham...

**Doktor** — Qayeringiz og'riyapti, uka?

**Qilichbek** — Men kasal emasman.

**Doktor** — Kechirasiz, uka, vazifamiz. (Chiqadi.)

**Qilichbek** — Doktor degandan demagan ma'qul, chunki doktor sira bunaqa bo'lmaydi.

(Oqsoqol kiradi.)

Oqsokol. Sobik maktab direktori. Hozir pensioner. Mahalla oksokoli. (Oqsoqolga) Assalomu alaykum (Xalqqa) Bugungi davrani as;ida shu kishi olib borishlari kerak edi. Lekin oqsoqolimiz qozonni birovga ishonmaydilar.

Oqsoqol — Hay-hay. Odam degan shunaqa joyda ham hazillashadimi. E, qo'ying-e! (Chiqadi.)

**Qilichbek** — Qilichbek. Bu kaminai kamtarinlari. Haligi Saidmalik zargarga shogirdman. Aslida... Ha, mayli, men o'zimni oxirida tanishtiraman.

Voqea mana bunday bo'ldi...

**Parda**

**BIRINCHI PARDA**

BIRINCHI MANZARA

Bahaybat bir daraxt. Uning chap tarafida 101-raqamli eshik, o'ng tarafida 103-raqamli turli-tuman yashik taxtalaridan ishlangan eshik. 101-uyda yamoqchi Abdusalom, 103-

uyda esa qorovul Mo‘min istiqomat qiladi. Mo‘min fig‘oni falakka chiqib Abdusalom oshnasinikidan chiqib keladi.

**Mo‘min** — Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga. E, ko‘rpangga qarab oyoq uzat-da, xumpar. O‘zing bitta so‘zaniga suyangan yamoqchisan-u, dag‘dag‘ang olamni buzadi. Yana nima deydi, deng: 4 qop un, 2 qop guruch, 2 ko‘y, bitta novvos, besh bosh-oyoq sarpo, yana kancha pul... O‘-ho‘, Tanti-boyvachcha bo‘lib ket-e! Qirq yillik qiyomatli qo‘shnim bo‘lib hali ham seni bilmagan ekanman.

Abdusalom kiradi.

**Abdusalom** — O‘, men to‘y qilmoqchiman, to‘ychiq emas. El-yurtning oshini yegan odamman. O‘zim kambag‘al bo‘lsam ham, himmatim baland, akasi.

**Mo‘min** — Ha, endi, do‘stim, hol-ahvolim o‘zingga ma‘lum. Nima qilasan meni qiynab? Men axir Saidmalik zargar emasman, bunaqa narsalarga kuchim yetsa. Behuda zo‘rluk umurtqani sindiradi degan gap bor.

**Abdusalom** — Ha, umurtqangni ehtiyot qil, kerak bo‘ladi. Bu dunyoda orttirgan narsalaringni narigi dunyoga orkalab ketasan.

**Mo‘min** — Qorovulda davlat nima qiladi, do‘stim.

**Abdusalom** — Ho‘, qorovul bo‘lsangiz nima, kattakon bir do‘konning korovulisiz. Chayqov bozori ham shundoq yonboshingizda. Nima qilasan o‘zingni go‘llikka solib?

**Mo‘min** — Nima, meni yulg‘ich, tekinxo‘r demoqchimisiz?

Abdusalom — Bo‘ldi, gap tamom.

**Mo‘min** — Kel endi, og‘ayni, ko‘lni och, fотиha qilaylik.

**Abdusalom** — Yo‘q. yo‘q. Mening qizim Moskov degan shaharga borib doktor bo‘lib kaytgan. Ha, har oyda yuz so‘lkavoyini qo‘yningizga jaraqatib soladi.

**Mo‘min** — Ha, bizni o‘g‘limiz-chi, Nodirjon, muxbir bo‘lib she‘r yozadi. Dasta-dasta kitoblari chiqadi.

**Abdusalom** — Menga xo‘roz bo‘lsin, tuxum qilsin. Oladiganidan gapir.

**Mo‘min** — Oladigani, har qalay, yamoqchinikidan kam bo‘lmasa kerak.

**Abdusalom** — Kuyovto‘raning topganlari yamoqchinikidan kam bo‘lmaydigan bo‘lsa, muxbir degani ham yamoqchidek bir gap ekan-da.

**Mo‘min** — (yalinib) Keling endi, fотиha qilaylik, qo‘sha qarishsin.

**Abdusalom** — Haligi shartlarga ko‘nsangiz ko‘ndingiz, bo‘lmasa, siz qiz so‘raganingiz yo‘q, men sizga xo‘p deganim yo‘q. Yopug‘lik qozon yopug‘lik. Gap tamom, vassalom.

**Mo‘min** — Shundaymi?

**Abdusalom** — Shunday.

**Mo‘min** — Bo‘lmaydimi?

**Abdusalom** — Bo‘lmaydi.

**Mo‘min** — He, men yamoqchining qiziga zor emasman. Mening o‘g‘limga kimlar qizini bermaydi?

**Abdusalom** — He, qorovul! Mening qizimga magazin mudirlaridan sovchilar kelyapti, ha!

(Keta boshlaydi.)

**Mo‘min** — Baribir, ko‘nasan, ko‘nmay qayoqqa borarding.

**Abdusalom** — He, bor, toshingni ter.

(Uyiga kirib ketadi.)

Ikki qadrdon o‘rtasidagi mojaroni devor orqasidan eshitib turgan Xurinisa kaftgir ko‘tarib erining oldiga chiqadi.

**Xurinisa** — Nima dedi?

**Mo‘min** — Uf, yo‘q deyapti.

**Xurinisa** — Hoy, dadasi, qizishmang. Mol egasi og‘ziga siqqanini so‘raydi, savdoni har idor pishitadi. Yetig‘i bilan gapirsangiz Abdusalom aka ham tushunadi. U ham odam

**Mo‘min** — Odam emas.

**Xurinisa** — Nima?

**Mo‘min** — Odam emas, deyaqman, garang! Odam bo‘lganda shu ishni qilarmidi?

**Xurinisa** — Qani, o‘tiring-chi. Uxshatmay uchratmas deb shuni aytadilar. Ikkalasi ham bir-biridan tajang, bir-biridan qaysar. Kim aytadi sizlarni qirq yillik kadrondlar deb. Bundoq tanangizga o‘ylang, dadasi. O‘g‘lingiz, Diloromdan boshqasiga qaramayman, desa. Dilorom ham Nodirni ko‘rganda ko‘zini suzib tursa, sizlarning janjallaringiz kayokka borardi? Xudo ko‘rsatmasin, ikkalasi topishib biror yurtga ketib qolishsa, unda nima bo‘ladi? Yolg‘izgina o‘g‘lim-a! (Yiyelaydi.)

**Mo‘min** — E, bas qil. Hech qayoqqa ketib qolmaydi.

**Xurinisa** — A?

**Mo‘min** — Hech qayoqqa ketmaydi, deyapman.

**Xurinisa** — Shunaka qilaversangizlar, ketib ham kolishadi. Bilib ko‘ying, bir kori hol bo‘lsa, ikki ko‘lim umrbod yoqangizda.

**Mo‘min** — He, bor, bor-ey, ishingni qil, erkaklarning ishiga aralashma!

**Xurinisa** — E, jindakkina joni boru turishini qarang! Dast ko‘tarib daraxtning ustiga o‘tqazib qo‘yaman, dodingizni xudoga aytasiz!

**Mo‘min** — Bunisi dag‘dag‘a qilib tursa, unisi tushun-masa, o‘rtada men nima qilishim kerak? Uf-f! Nima qildim-a! Boshim qotdi-ku. Bir hisobda bu garangning ham gapida jon bor. Ikki yosh bir-biri bilan topishib ketsa, biz karilar kim degan odam bo‘lamiz-a? Yo‘k, yana gapla-shib ko‘rmasam bo‘lmaydi. (Devor yoniga keladi.) Abdusalom! Ho‘, mulla Abdusalom.

**Abdusalom** — (ichkaridan) Abdusalom yo‘q.

**Mo‘min** — E, do‘stim, bu yokqa chiking endi. Gap bor.

Abdusalom — Ishim ko‘p, vaqtim yo‘q.

**Mo‘min** — Chiqaqoling endi. Kallaga bir fikr kelib qoldi.

**Abdusalom** — Bedananing tuxumiday kallangizga nima fikr kelib koldi?

**Mo‘min** — Bir fikr keldi-da! Bu yoqqa chiqing. Mayli, men ko‘ndim.

**Abdusalom** — Ha, bu boshqa gap. Ko‘nmay kayokka borarding. (Chiqadi.)

**Mo‘min** — Bo‘pti. Qani, o‘tiring-chi, kuda. Mayli, siz aytganingizcha bo‘la qolsin. Lekin...

**Abdusalom** — Nima lekin? Yana nima gap?

**Mo‘min** — Shoshmang, shoshmang. Gap bunday. Ikkalamizning ham holimiz bir-birimizga ma‘lum. To‘yni bir joyda qilsak.

**Abdusalom** — To‘y bir joyda bo‘ladimi?

**Mo‘min** — Eshigimiz yonma-yon bo‘lsa, mehmonlar u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib yuradimi? To‘y bir joyda bo‘lsa, ham yig‘inchoq, ham tartibli, ham arzonroq tusharmidi, deyman-da.

**Abdusalom** — To‘y siznikida bo‘ladimi?

**Mo‘min** — Ha-da.

**Abdusalom** — Men yoru birodarim, qarindosh-urug‘larimni siznikiga taklif qilamanmi?

**Mo‘min** — Shunday bo‘ladi-da.

**Abdusalom** — O‘choq, qozon-tovoq, tugun-tersak biznikida bo‘ladimi?

**Mo‘min** — Mayli.

**Abdusalom** — Mayli, deydi-ya! Omin, ollohu akbar! (Turadi.)

**Mo‘min** — E, qayoqqa?

**Abdusalom** — Bor-bor-ey! To‘y bu kishinikida bo‘lar emish. Siznikida to‘y qilib bo‘ladimi? Olqindiday hovlingiz bor. To‘y bo‘lsa, mana, menikida bo‘ladi.

**Mo‘min** — Hali sizning hovlingiz katta bo‘ldimi? To‘rtta odam kirsa, beshinchisi laylakka o‘xshab bir oyog‘ini ko‘tarib turishi kerak. To‘y biznikida bo‘ladi. Nima qilsa ham, o‘g‘il uylantiryapman.

**Abdusalom** — Men yolg‘iz qizimni chiqarmoqchiman. To‘y bo‘ladigan bo‘lsa, mana, menikida bo‘ladi.

**Mo‘min** — Bo‘lmasa mana bunday qilamiz, do‘stim. O‘rtadagi bir parda devorni buzamiz, hovlini katta qilamiz. To‘yni bir joyda o‘tkazamiz. Bo‘ldimi?

**Abdusalom** — Yo‘q, har bir insonga bir uy, bir go‘r, deganlar mashoyixlar.

**Mo‘min** — Mashoyixlar aytgan bo‘lsa eski zamonda aytgan, hozir yangi zamon.

**Abdusalom** — Hikmatning eski-yangisi bo‘lmaydi, oshnam.

**Mo‘min** — Bugun bo‘lmasa erta, erta bo‘lmasa indin uy-joying buziladi. Nima qilasan eski hovliga yopishib. Buldozer tumshug‘ini tirab turibdi-ku!

**Abdusalom** — O‘sha buldozeringni tagiga o‘zimni tashlaganim bo‘lsin. Men uy-joyimni, ayniksa devorni buzdirmayman. Axir, bu devorni otam rahmatli o‘z qo‘llari bilan kurganlar. (Ko‘ziga yosh oladi.)

**Mo‘min** — Otang rahmatli xam o‘zingga o‘xshagan ta-jang edi. Arzimagan devor uchun dadamning boshini chopib tashlashiga ozgina kolgan edi.

**Abdusalom** — Juda ham to‘g‘ri qilgan ekanlar, rahmatli otam. Sening otang ham o‘zingga o‘xshagan judayam ayyor. tulki odam edi. Mana shu devorni olishda ham, rejani to‘rt enlik beridan olganlar. Haliyam mana shu hovlingda to‘rt enlik haqqim bor.

**Mo‘min** — E, to‘rt enlik emas, hammasini ol! Shu devorni buzamiz. Zaminini senga

xatlab beraman. Bo‘ldimi?

**Abdusalom** — Hammasini-ya.

**Mo‘min** — Ha, hammasini.

**Abdusalom** — Temir daftardan ham o‘tkazib berasan, bo‘pti, men rozi. Qani, qo‘lni och! Omin. olloxu akbar! Ketmonni olib chiq.

**Mo‘min** — Hozir-a? Nafasni rostlab olaylik. Bafurja qilamiz.

**Abdusalom** — Io‘q, eskilarning bir so‘zi bor: «Na ishkim boshlading, tavsallamay hech bugun qil, ertaga bo‘lg‘usidir kech».

Assalomu alaykum, qudajon, kelin muborak bo‘lsin.

(Qulluq qiladi.)

**Mo‘min** — Kuyov muborak bo‘lsin.

**Abdusalom** — Qani, omin, tup qo‘yib palak yozishsin, ko‘sha karishsin. Biz ham qarib-churib yuraylik.

Chikadilar. Dilorom bilan Nodir kiradilar.

**Nodir** — Shunday bayt aytibdi Hofiz Sheroziy:

*Agar ko‘nglimni band etsa*

*O‘shal Sheroz jononi,*

*Qaro xoliga baxsh etdim*

*Samarqandu Buxoroni.*

**Dilorom** — Hofiz Sheroziy ko‘p saxiy ekan, kani, eshitaylik, Nodir ne degan?

**Nodir** — Ming Samarqand, ming Buxoro

Hadya bo‘lsin xol uchun.

**Dilorom** — Na iloj, menda havas yo‘q,

Mulku davlat, mol uchun.

**Nodir** — Senga yulduzli samoni

Hadya aylay, dilbarim.

**Dilorom** — Qo‘y uni, o‘ldimmi, shoir,

Bu cho‘tir ro‘mol uchun.

**Nodir** — Xo‘p desang, men yangi oyni

Sirg‘adek takdim etay.

**Dilorom** — Zormidim jezman yasalgan

Hiylai a‘mol uchun.

**Nodir** — Qil tarahhum, kim alifdek

Qomatim dol bo‘ldi-ku!

**Dilorom** — Kim ko‘yibdir sevgini

Qaddi bukilgan chol uchun.

**Nodir** —

*Yor istig‘nosidin*

*O‘lmasman-u, kuydim va lek*

*Lobarim oldida she‘rim*

*Bunchalar behol uchun.*

**Dilorom** — U lozar kim ekan?

**Nodir** —

*U bir Dilorom.*

*Qalbimning sultoni, ko‘nglimga orom.*

*Dilimga muhabbat shavkini solgan,*

*Kechalar ko‘zimdan uykuni olgan!*

*Meni halovatdan ayirgan mudom*

*U bir Diloromdir, u shu Dilorom.*

**Dilorom** — Bir oz pastrok tushing, shoirim.

**Nodir** —



*Nechun?*

*Muhabbat arshida turibman bu kun.*

*Visol oni keldi, tugadi hijron.*

*Biz endi bir umr birgamiz, ishon.*

*Sen pari, koshingda devona bo'lay,*

*Jamoling sham'iga parvona bo'lay,*

*Senga termulayin tong otgungacha,*

*Tong otganidan yana kun botgungacha.*

*Quvonchimga bu kun tor ikki olam...*

Shu payt ichkaridan devorga urilgan ketmon tovushi eshitaladi.

Oshiq-ma'shuklar ko'cha devoridan ichkari qarashadi.

Qiziq, buzishmoqda devorni.

**Dilorom** — Dadam —

Devor tagin kovlab yotibdi, qarang.

**Nodir** — Devor eski, lekin juda ham zarang.

Ketdik, yordam beray.

**Dilorom** — Kirmang!

**Nodir** — Ne sabab?

**Dilorom** — Dadamning fe'lini bilasiz...

**Nodir** — Haq gap.

Ichkaridan gumburlash ovozi keladi. Dilorom cho'chib tushadi.

Nega qo'rkding jonim, devor quladi, Buning alomati yaxshi bo'ladi.

**Dilorom** — Yiqilaturib ham chirigan devor,

To'ldirmok bo'ladi ko'zingga g'ubor.

**Nodir** — Endi o'rtamizda devor yo'q.

**Dilorom** — Ammo

Tirik devorlardan asrasin xudo.

Chiqishadi. Sahna aylanadi. Pasqam burchak. Tuproqqa belangan Mo‘min bilan Abdusalom quvona-quvona hadixsirab chiqib kelishadi. Mo‘minning qo‘lida sopol ko‘za. Nodir va Dilorom kirib qolishadi.

**Nodir** — Dada, nima gap? Nima bo‘ldi?

Mo‘min qo‘lidagi ko‘zani yoshlar ko‘rib qolmasliklari uchun to‘n orasiga yashiradi va yotib oladi. Abdusalom yo‘lini qilib, Mo‘minning yelkasini ukalashga tushadi.

**Mo‘min** — (Nodirga) Oyingga kir, yarimta aroqqa pul bersin.

**Nodir** — Aroqni nima kilasiz?

**Abdusalom** — Silash uchun, o‘g‘lim. Dadangizning yelka tomiri tortishib qolibdi. Sen, kizim, ovqat tayyorla.

Yoshlar chikishadi. Abdusalom Mo‘minni og‘ilxonaga yetaklan-di. Ular og‘ilxonaga kelib ko‘zaning og‘zini ochadilar. Ko‘zadan latta-putta, paxta, arqon, zski kalish chikadi. Abdusalom znsasi kotib ko‘zani Mo‘minga beradi.

**Abdusalom** — Ol, hammasi seniki.

**Mo‘min** — Rosa ko‘lga tushdingmi, do‘stim, menga kara, men bergan qo‘yni so‘yib, yog‘ini shu xumga solasan-da, kishda palovxonto‘rani yasab maza qilib yeb yotasan, ol.

Ko‘zani Abdusalomning oldiga taq etib qo‘yadi. Ko‘zadan allaqanday jiringlagan ovoz chikadi. Ular xayratlanib ko‘zani silkita boshlaydilar. Abdusalom ko‘zaga qo‘l tikib bir kancha oltin tillalarni oladi. Quvonchlari ichiga sig‘may o‘yinga tu-shib ketadilar. Oltinni ko‘rgan Mo‘min ashula aytib o‘yinga tushadi.

**Abdusalom** — Oltin topgan men-ku, nega sen o‘yinga tushyapsan?

**Mo‘min** — Ha, fikring buzildimi? Tilla meniki. Devorni buzamiz degan kim?

**Abdusalom** — Xo‘sh, o‘sha devorni urgan kim? Mening dadam bo‘ladilar. Oltin rahmatli dadamniki. gap tamom, vassalom.

**Mo‘min** — Devorni dadang urgan bo‘lsa, loyini mening dadam qorib bergan.

**Abdusalom** — Loy qorganning butun topgan-tutgani o‘sha loyga qorishib ketadi, o‘rtoq. Nima qilganda ham, otamning qo‘llarida oltindek hunari bor edi.

**Mo‘min** — Mening bobom Xudoyorxonning sarbozi bo‘lgan, oltin meniki.

**Abdusalom** — Mana bu arqonni ko‘ryapsanmi, buni kassob ishlatgan. Oltinni ham kassob ko‘mgan. Mening dadam rahmatli ko‘mgan.

**Mo‘min** — Bo‘lmasa, mana bu paxta nima qilib yurib-di. Mening dadam Eskijo‘vada choponfuruslik qilganlar. Paxta o‘shandan qolgan.

**Abdusalom** — Manovi kalish-chi, mening dadam kiy-ganlar, mana, mening oyog‘imga loyiq.

**Mo‘min** — Bo‘lmagan gapni gapirma. Sening dadangni yaxshi bilaman. Masteravoylar bilan yarmarkada birga yurib doim botinka kiyar edi. Kalish-mahsi kiyman. Uni mening dadam kiyganlar. Mana, paytava mening dadamlarniki.

**Abdusalom** — Bekor aytibsan. Bularni mening da-dam oltinlarni ins-jinslardan saqlash uchun solganlar. Buning choponfurusga hech qanday daxli yo‘q. (Ikkalovi ko‘zaning ikki qulogidan tortishadi.) Qo‘yib yubor, bo‘lmasa kallangdan darcha ochib qo‘yaman.

**Mo‘min** — Kimni?

**Abdusalom** — Seni.

**Mo‘min** — Qo‘yib yubor, qo‘yib yubormasang xotinimni chaqiraman.

(Tashqaridan Nodirning ovozi keladi.)

Dada, qayerdasiz? Oyi, dadam qanilar? **Mo‘min** — Agar xo‘p desang, o‘rtasidan bo‘lamiz. **Abdusalom** — Arra, bo‘pti men rozi.

## IKKINCHI MANZARA

Dang‘illama uchastka. O‘rtada fontan. Fontan hovuzchasida aroq, kon‘yak, vinolar. Bu sobiq zargar, hozirgi kunda xo‘jalik xodimi Saidmalikning hovlisi.

**Shafolat** — Hali shunaqami, yana ketasanmi? Nima men senga poyloqchimanmi? Ketkazmayman.

**Saidmalik** — Davlat ishi, komandirovka.

**Shafolat** — Bilmayman, yubormayman. Men uy poylamayman.

**Saidmalik** — Bor, ko‘zimga ko‘rinma.

**Shafolat** — Nima-nima? Ho, shuncha kilgan xizmatlarim, yelib-yugurganlarimga aytgan rahmating shu bo‘ldimi, nomard!

**Saidmalik** — Bas...

**Shafolat** — Men senga xotin emas, mana bu taqin-choqlarni bozorga olib borib ko‘rsatadigan qo‘g‘irchoq ekan-man-da!

**Saidmalik** — Yo‘qol, dedim senga, yo‘qol!

**Shafolat** — Xo‘p, ketaman. Lekin bilib qo‘y. Mening yosh umrimni xazon qilgan mana shu xonadoningga o‘t qo‘yib ketaman.

**Saidmalik** — Qo‘lingdan kelganini qil.

**Shafolat** — Men qayerga borishimni, kimga arz qili-shimni o‘zim yaxshi bilaman. (Keta boshlaydi)

**Saidmalik** — Shafolat, menga kara. To‘xta. Esingni yig‘. Men senga nima yomonlik qildim?

**Shafolat** — Qo‘lingni tort. Sen menga er emassan.

Chikib ketadi.

**Saidmalik** — Ming la’nat bunday xayotga. Nima qilayki, tilim qisiq. Bu qanday turmush? Ming-ming puling bo‘lsa-yu, bitta durust mashina olib mina olmasang. To‘rtta qasr qurgundek davlating. bo‘lsa-yu, ko‘z ko‘rgudek imorat qura olmasang. Kechayu kunduz orqamdan allaqanday soyalar quvlab yuradi. Dahshat, dahshat. Hamma mening izimga tushgan. Hamma menga dushman. Ablahlar.

Kayf holatda gandraklab Qilichbek kirib keladi.

**Saidmalik** — Ha, yana otibsiz-da, a?

**Qilichbek** — Ha, xo‘jayin, sizni davringizda otib turaylik. Baribir bir kunmas bir kun ikkalamiz ham otilamiz, xo‘jayin.

**Saidmalik** — O‘chir ovozingni, nafasing qursin. Men buyurgan ishlar nima bo‘ldi?

**Qilichbek** — Hammasini qoyil qildim, xo‘jayin. Mana, xo‘jayin, 2 ming so‘m. Cho‘talni cho‘zing, xo‘jayin.

**Saidmalik** — Barakalla. Sen menga shogirdgina emas, tug‘ishgan ukamdan ham afzalsan. Bundan bir yil oldin sen bo‘lmaganingda ikkita yo‘lto‘sarning qo‘lida o‘lib ketgan bo‘lar edim. Mushtlashishga ham chakki emas ekansan-a?

**Qilichbek** — Boks to‘garagiga qatnashganim ish berdi-da, xo‘jayin. Har yomonlikning bir yaxshiligi bo‘ladi, xo‘jayin. Mana sizdek odam bilan tanishdim.

**Saidmalik** — Mana shu safardan eson-omon qaytib kelsam, katta to‘y qilib boshingni ikkita qilib ko‘yaman.

**Qilichbek** — Rahmat, xo‘jayin. (Kayf aralash yiyelab Saidmalikka osiladi.) Qayokka otlandingiz, xo‘jayin?

**Saidmalik** — Odessaga. Istanbuldan mol keladi.

**Qilichbek** — Meni yubora qoling.

**Saidmalik** — Yo‘k, o‘zim bormasam bo‘lmaydi. Bu gal nsh muhim.

**Qilichbek** — Muximini ham koyil qilaman.

**Saidmalik** — Bu ish ammingiz emas. Hali hukumat odamlarini bilmaysan. Ular juda xam usta bo‘ladi. Ammo men ham chakana emasman. Ularning mingtasiga chap berib ketaman. Axir, meni «Saidmalik tulki» deydilar-a?

**Qilichbek** — Bu gapingiz to‘g‘ri. Lekin, mabodo, xo‘jayin. ko‘lga tushib kolsak ikkalamizni baravar oti-sharmikan yoki alohida-alohida otisharmikan?

**Saidmalik** — E, bo‘ldi-e! Farishta yaxshi gapga ham, yomon gapga ham «omin» deydi. Menga kara. Uyda uch-to‘rtta gilam bor. Yig‘ishtirib anavi Abdusalom galvarsnikiga olib chiqib ko‘ygin.

Ko‘cha eshik takillaydi.

**Qilichbek** — Kim u? **Abdusalom** — Men, Abdusalom. **Saidmalik** — E, Abdusalom bo‘lmay o‘l, yurakni yording-ku. **Qilichbek**, chakir.

**Qilichbek** eshikni ochadi, Abdusalom kiradi.

**Saidmalik** — Xizrni yo‘qlasak bo‘lar ekan. Hozirgina tilga olib turgan edik.

**Abdusalom** — Ha, yaxshini eslash savob deganlar. Yon ko‘shnim — jon ko‘shnim. (Saidmalik hovuzchadan kon‘yak olib Abdusalomga ichishni taklif etadi) Men ichgan emasman, umrim bo‘yi ichgan emasman. (Qilichbekning zo‘rlashi tufayli Abdusalom bir ryumka kon‘yakni ichib yuboradi.)

**Saidmalik** — Bu uzumni suvi, shifo bo‘ladi.

**Abdusalom** — Ichimga to‘pponcha otilganday bo‘ldi.

**Saidmalik** — Qo‘shni, sizni esga olib turganimning sababi shuki, men keliningiz bilan sayohat qilib kelmoqchi edim. Uyimiz yolg‘iz qolyapti. Ba‘zi bir mayda-chuyda narsalarni siznikida qoldirib ketsam, deb o‘ylagan edim. Siz nima deysiz?

**Abdusalom** — (Kayfi oshib qolib, tili zo‘rga gapga keladi.) Juda soz, qo‘shning qo‘shniga shunaqada foydasi tegmasa qachon tegadi?

**Saidmalik** — Rahmat, rahmat.

**Abdusalom** — Qilichbek ukam, o‘sha narsalarni biz-nikiga olib chiqib qo‘y. (Qilichbek

narsalarni ko‘tarib chiqadi.)

**Saidmalik** — Endi, Abdusalom aka, o‘zlaridan so‘rasak, bizning tomonlarga kaysi shamollar uchirdi?

**Abdusalom** — Men bir narsani bilgani chiqkan edim. Eski o‘n so‘mlik oltin shu kunlarda necha pul turadi?

**Saidmalik** — Shu kunlarda oltinning narxi juda ko‘tarilib ketgan. Bir donasi 220-250 so‘m turadi.

Abdusalom hang-mang bo‘lib xayolida tillani sanay boshlaydi.  
— Tilla o‘zlariga kerakmi?

**Abdusalom** — Shu, bitta tilla tish qo‘ydirmoqchiman.

**Saidmalik** — Tilla tish? O‘zlarigami? Obbo qo‘shni-ey. Tuya hammomni orzu qilibdi-da.

**Abdusalom** — (kayf ichida) Hali shunaqami? Siz boyvachcha-yu, biz tuya bo‘ldikmi? (Коньяkdan ichadi). Mana shu uchastka, biznikiga olib chiqib qo‘ygan narsalaringiz hammasi qancha turadi? Uch barobar to‘lashga qurbim yetadi. Tuya, deydi-ya! Yo‘q, men endi tuya emasman. (Yonidan oltin tanga chiqarib) Sizga mana shu oltin bilan to‘layman. Sizdaqa boyvachchaning o‘ntasini do‘kon-po‘koni, ichak-chavag‘i bilan sotib olishga qurbim yetadi.

**Saidmalik** — Hey, nima deyapsiz? Bilasizmi, men kimman?

**Abdusalom** — Kim bo‘lasan?

**Saidmalik** — Men hukumat odamiman. Tegishli joyga xabar kilsam nima bo‘ladi? Tillani qayerdan oldingiz?

**Abdusalom** — Tilla o‘zimniki. Rahmatli dadamdan meros qolgan.

**Saidmalik** — Bo‘lmagan gap. Abdurasul qassobning o‘lib ketganiga qirq yildan oshdi. Tillasi tugul po‘stagi ham qolmagandir. Esingizda yo‘qmi, qirq uchinchi yili bola-chaqam och qoldi, deb dadangizdan qolgan dandon sopli pichoqni menga yalinib sotganingiz? Tilla bo‘lsa, o‘sha paytda yorilgan bo‘lardingiz. Yolg‘onni eplagan odam gapirsin. Xo‘sh, ayting, qayerni o‘mardingiz?

**Abdusalom** — (hushyor tortib) Qo‘ying-e, nimalar de-yapsiz? Men o‘g‘rilik qiladigan odammanmi?

**Saidmalik** — Men sizni halol, diyonatli kishi deb yurardim. Odamning olasi ichida bo‘lar ekan. Shuncha nil birga qo‘shni bo‘lib bilmabman-a!

**Abdusalom** — O‘ylab gapirsangiz-chi!

**Saidmalik** — Tilla magazinni o‘margansiz. Bildim. Hozir xabar kilaman. Men uchun xalq, davlat mulkidan aziz narsa yo‘q.

**Abdusalom** — Jon qo‘shni, aylanay ko‘shni. Xabar qilmang. Rahmingiz kelsin. Yolg‘iz qizim yetim bo‘lib qoladi. (Kon‘yak shishasiga qarab) O‘l, meni sen shu kuyga solding. (Saidmalikka) Mana bu tillani yo‘ldan topib olgan edim. Sizga sotmoqchi bo‘luvdim. Mayli, siz shuni olaqoling. O‘zingizga, tekinga.

**Saidmalik** — E, ha, hali menga pora bermoqchimisiz? Hukumat odami sizga poraxo‘r bo‘ldimi? Hali xabar qilmagan bo‘lsam, endi xabar qilaman. Menga qarang, militsiyaning nomeri qanaqa? Ha, ha. 02.

**Abdusalom** — Menga qarang, xudo xayringizni bersin, xabar qilmang.

**Saidmalik** — Bo‘lmasa, ayting, tillangiz qayerda?

**Abdusalom** — Tokning tagida ko‘mib ko‘yibman.

**Saidmalik** — Qancha?

**Abdusalom** — Ancha.

**Saidmalik** — Ko‘mgan yeringizni ko‘rsating.

**Abdusalom** — Xo‘p.

Chiqishadi. Chiqa turib Abdusalom kon‘yak shishasiga yana «o‘l» deb o‘tadi. Gilam ko‘tarib chiqib ketgan Qilichbek qaytib qiradi.

**Qilichbek** — Xo‘jayin, hammasi gatop bo‘ldi. (Ularni topolmay hayron bo‘ladi.) Iye, bular ikkalasi maloikalar-dek qanot chiqarib uchib ketishdimi? (Devor osha qaraydi.) Ajabo, ular tokning tagida nima qilib uymalashib yurishibdi. Yoki xo‘jayin biron narsani o‘sha yerga ko‘mdirmoqchimi? Io‘q, bizning xo‘jayin unaqa anoyilardan emas. (Panaga o‘tadi. Abdusalom va Saidmalik kiradilar.)

**Saidmalik** — Abdusalom aka, yashirgan joyingiz yaxshi. Lekin yana ham ehtiyotkor bo‘lish kerak. O‘sha yerga bizning olaparni bog‘lab qo‘yamiz.

**Abdusalom** — Mo‘min ko‘nmaydi.

**Saidmalik** — Aldang, avrang, ko‘ndiring. Ko‘nmasang qizimni bermayman, deng.

**Abdusalom** — ZAGSdan o‘tishgan bo‘lsa, nikox...

**Saidmalik** — Nikohga balo bormi? Mo‘min gapga ko‘nsa ko‘ndi, bo‘lmasa nikohni buzamiz. Sizga o‘zim kuda bo‘laman. Qilichbekdek kuyovingiz bo‘lsa yomonmi?

**Abdusalom** — Qilichbek?

**Qilichbek** — (chetga) Ana, baxtingiz ochilib qoldi, Qilichbek.

**Abdusalom** — Mayli, maslahatlashib ko‘ramiz. Mo‘min bilan bir gaplashib ko‘raman. Menga qarang, jon aka, bu yerda bo‘lgan gaplarni hech kim bilmasligi kerak.

**Saidmalik** — Mana, Abdusalom aka, ikki ming.

**Abdusalom** — Ikki ming?

**Saidmalik** — Bu xamir uchidan patir. Tillalaringizni hammasini o‘zim sotib olaman.

**Abdusalom** — Ikki ming! Niyat kardam, biguzoram! Makkai mukarrama, Madinai munavvara.

(Abdusalom sanab chiqib ketadi.)

**Saidmalik** — (yoleiz) Ana, mulla Saidmalik. Qirq yillik orzuimg ro‘yobga chiqadigan bo‘ldi. Endi kimsan Saidmalik millioner bo‘laman. Qandingni ur!

**Qilichbek** — (o‘zicha) Tillalaringizni sotib ola-man? Yana kimdan? Abdusalom yamoqchidan. Yo‘q, bu odam yamoqchimas. Boshqa xunari bor. Yoki xo‘jayin aytgan Taka maxsum shumikan-a? Qani, ko‘ramiz, Nodir, sening muhabbating zo‘rmi yoki xo‘jayinning oltinlarimi? Haqiqiy imtixon endi boshlanadi.

Uchinchi manzara

Mo‘minning chog‘roqqina hovlisi. Bu yerda hamma narsa uy egasining kamtar xayotiga mos. Oldingi planda peshayvon. Eski ko‘rpachalar solingan. Devorda Mo‘minning yoshlikda harbiy kiyimda tushgan suvrati. Matlab va Zuhra.

**Matlab** —

*Sog‘indim, yorug‘ yulduzim!*

*Qani bilsang eding, olis yurtlarda*

*Senga intilganim, zor bo‘lganlarim.*

*Sharqdan ko‘tarilgan tong yulduziga*

*Mening Zuhram, deya yoborganlarim...*

*Qani bilsang eding, Arab dashtida*

*Quyosh tikka kelib o‘t purkagan chog‘,*

*Sening toza ishqing, pok muhabbating*



*Menga jon berganin bamisli buloq.*

*Seni sog'inganda iltijo qilib Majnundek*

*Ka'baga bosh qo'ysam, dedim.*

*Mo'jiza ko'rsatu ona yurtimga*

*Zuhranga yetkaz, deb yosh quysam, dedim.*

**Zuhra** — Shoir bo'libsiz-ku! (Nodirning sharpasini eshitib Matlabdan uzoqlashadi.)  
Akam! (Nodir kiradi.)

**Nodir** — Hoy, puchuq! Shimimni dazmollab qo'ydingmi?

**Zuhra** — Voy, yo'q...

**Nodir** — (Matlabni ko'rib) I-e, o'zingmisan, do'stim Matlabjon?

Kelganing rostmi?

**Matlab** — (hazil bilan) Yo'q, kelganim yolg'on.

(Quchoqlashib ko'rishadilar.)

**Nodir** — Obbo sen-ey! Endi sen hoji Matlab!

**Matlab** — Yo'g'-e!

**Nodir** — Yurgan — daryo! Sen ikki hatlab Arablar yurtidan kelib turibsan, Majnun diyorini borib ko'ribsan. Qoyil, do'stim, qoyil, ming karra balli.

(Zuhraga tegishib)

Majnun kelsa, uyda bor ekan Layli. Xo'sh, do'stim, qayerlarda bo'lding?

**Matlab** — Al-Iskandariyada, Qohirada ham bo'ldim. Lekin, rostini aytsam, ularning mingtasini O'zbekistonning bir sikim tuprog'iga alishmayman.

**Nodir** — Shundaykan, qayta qol.

**Zuhra** — Muddat qachon tugaydi?

**Matlab** — Bir yil.

**Nodir** — (Zuhraning nomidan qilib) Voy-bu... — Seni hammamiz ham sog'indik. Ayniqsa, puchuq.

Ichkaridan Mo'minning mungli ovozi eshitaladi.

**Zuhra** — Dadam chikyaptilar. (Ichkari kiradi.)

**Matlab** — Tinchlikmi?

**Nodir** — To‘y taraddudi bilan charchab qoldilar shekilli, dadamning mazasi yo‘q. Oldin umri odamlar ichida o‘tar edi. Hozir esa el-yurtga qo‘shilmay ko‘ydilar. Kechala-ri alaxsirab chikadilar.

**Matlab** — Doktorga ko‘rsatish kerak.

**Nodir** — Oyimlarni bilasan-ku. Doktorga balo bormi, deydilar. Dadamni jin urgan emish.

**Matlab** — Jin? Qanaqa jin?

**Nodir** — Qudalar bilan bir hafta ilgari o‘rtadagi devorni buzishgan edi. Devor kavagidagi jinlar duv etib dadamning yelkasiga qo‘nib olgan emish.

**Matlab** — Shunday mo‘min odamning yelkasiga qo‘nib olgan bo‘lsa zap bekorchi jin ekan-da. Dadang charchagan bo‘lsalar kerak. Dam olsalar tuzalib qoladilar. Men endi boray. Hisobot berishim kerak.

Nodir, Matlab chiqadi. Mo‘min kiradi.

**Mo‘min** — E xudo! Men senga nima yomonlik qildim? Men sendan oltin so‘raganmidim? Ol, oltinlaringni. Ber, mening xotirjamligimni. Yuragim ezilib ado bo‘ldi-ku.

Oltin solingan xaltachani yerga otadi. So‘ng yana vasvasaga tushadi.

Yerda oltin yotibdi! (Xaltachani olib bag‘riga bosadi.)

Yo‘q, buni hech kimga bermayman. Qayerga berkitsam ekan?

Oltin solingan xaltachani berkitmoqchi bo‘lib joy qidira-di. Ko‘rpaning tagiga qo‘ysa, do‘ppayib qoladi.

He, do‘ppaymay o‘l!

Kidira-qidira samovarning tagiga yashiradi. O‘zicha xotirjam bo‘ladi. Lekin «Hukumat odamlari topib olishmasmikin?» degan xayol bilan ko‘chaga chiqib, tashqaridan eshikni taqillatadi. Bego-na ovoz bilan chaqiradi.

Mulla Mo‘min, ho‘ mulla Mo‘min!

Tovushga Zuhra ichkaridan yugurib chiqdi. Mo‘min gerdayib. o‘zicha «xukumat odami» bo‘lib kirib keladi. Zuhra otasining ishini ko‘rib qo‘rkib ketadi va ichkariga kochadi.

Xo'sh, mulla Mo'min, qani, oltinlarni topshirib qo'ying. Ha, topshirmaysizmi? Mayli, o'tiravering. O'zimiz topib olamiz. Qani, mahalla faollari, kiraveringlar.

U yoq-bu yoqni karagan bo'lib, samovar yoniga keladi. O'zi cho'chib ketadi.

Voy-dod, ko'rinyapti. Topib olishadi. Qayerga berkitsam ekan. Ha, suratimning orkasiga berkitaman.

Devordagi suratning orqasiga oltinlarni berkitadi. Har tomondan karaydi.

Eshik tomondan ham ko'rinmas ekan. Xudoga shukr. Endi tinch uxlayman.

Eshik takillaydi. Mo'min cho'chiydi. Hovliga mahalla oqsokoli kirib keladi.

**Mo'min** — (sarosimada) Keling, keling.

**Oqsoqol** — Keldim, lekin bemavrudrog' kelib qoldim, shekilli.

**Mo'min** — (o'zini yo'qotib) Ha... shunday...

Oksoqol — (fotiha o'qiydi) Mulla Mo'min, sog'lig'ing qalay?

**Mo'min** — Bir navi. (Hadeb suvrat tomonga qaraydi.)

Oqsokol — Muncha suratingga tikilasan. O'zingni ko'zing tegadi. Kara, bir zamonlar suksurday yigit ekan-san!

Oqsokol surat oldiga boradi. Mo'min nima qilishni bilmay voyvoylab titray boshlaydi.

**Oqsoqol** — Nima bo'ldi, tinchlikmi? **Mo'min** — Shu, qornimga bir narsa to'pday tiralib koladi-da...

**Oqsoqol** — Urush qursin, urush. Hammamizning sog'lig'imizni olib ketdi.

**Mo'min** — O'tiring, o'tiring. Qimirlamang. Qimirla-sangiz yana og'riydi.

**Oqsoqol** — Mulla Mo'min, maslahatlik gapim bor. Hammamiz bir mahallaning odamimiz. Uzokdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal. Kecha mahallaning uch-to'rt faollari maslahatlashgan edik. Hammamizning fikrimiz bir yerdan chiqib qoldi. To'y qilaman deb, mazang qochib qoldi. Xomushsan, odamga qo'shilmaysan. O'zing bilan o'zing gapla-shadigan bo'lib qolibsang. Rasm-rusmlarimiz kursin.

Bizda to'y qilguncha yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladi. Lekin sen parvo qilma. To'yning boshida o'zimiz turib, chiroyli qilib o'tkazib beramiz. Mana, ozgina pul. To'yona. Mahalladan yordam. Ol. Hali to'yga yaqin bir qop un, ikki pud guruch to'g'rilab berish ham mahalla gardaniga. Axir biz senga har qancha kilsak oz. Sen yurt uchun vaqti kelsa joningni ham ayamagansan. Yaxshilikni ham, og'irlikni ham el-yurt

bilan baham ko'rgansan. Ba'zi bir qo'shnilaringga o'xshab o'g'ri mushukdek hayot kechirayotganing yo'q. (Mo'min o'z ahvoliga achinib yig'laydi. Oqsoqol yiyeini o'zicha tushunib) Yig'lama, biz seni yolg'iz qo'ymaymiz. Xo'p, men endi boray. Pensiyaga chiqsam ham tinchimayman. Narigi mahalladagi Sotimboy sarik qariganda kiliq chiqarib xotini bilan aytishib kolibdi. Hozir o'sha yerga kirib o'ziga ham, xotiniga ham nasihat qilib chikmoqchiman. Mo'myn — O'tiring, choy-poy...

Oksoqol — Jigarim, kaddingni ko'tar, bu ahvolda to'yingga yetolmay qolasan-ku. (Chiqadi.)

Mo'min ayvondagi ko'rpachaga cho'ziladi. «Alla» ko'shig'i eshitiladi. U shunchalik horiganki, bir zumda uyquga ketadi. Lekin oltinlar tufayli uyqu xam notinch. Alaxsirab o'rnidan turadi.

**Mo'min** — Xayriyat, tushim ekan, tuf, tuf, qo'rqib ketdim-a. (Oltinni tekshiradi.) Xayriyat, joyida.

Suvrat orqasidagi xaltani olib yostig'i tagiga ko'yadi va yana uyquga ketadi. Buni kuzatib turgan Saidmalikning ishorasi bi-lan Qilichbek hovli devoridan oshib tushadi. Oltinni olib, xuddi shu xildagi xaltani Mo'minning yostig'i tagiga joylab ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bir ozdan so'ng Mo'min uyg'onib ketadi. Vayevasaga tushib xaltaga yopishadi va yana hushyor tortadi.

**Mo'min** — Ha, sarik shayton. meni sen yana vasvasaga solyapsanmi? Yo'q, gapim gap. Men seni ertagayok olib borib topshiraman.

Men yurt uchun jonimni ham ayamadim, topib olgan oltinlarimni ayarmidim? Sen baland-baland imoratlar bo'lib kad ko'tarishing kerak. Maktablar, choyxonalar, bog'chalar bo'lishing kerak. O'sha choyxonaning birida men o'ltiraman. «Ha, choyxonachi, kani, achchiq choydan damlang. Ko'k choy. Starshiy qorovul bo'ldingmi, deysizmi? Ha, starshiy qorovul bo'ldim. Hay, Nodirning o'g'li. Kesak otma! Yangi maktabning derazasi sinadi. Bu maktab bobongning oltinlariga solingan. Bor uyga, bor». («Oltinli» xaltaga qarab yana berkitish payiga tushadi.) Qayerga berkitaman. (Xaltani hovlining o'rtasiga qo'yadi.) Ha, mana shu yerga berkitaman.

Ichkaridan Xurinisa, Nodir, Zuhra chikib, uning harakatini kuzatishadi.

**Xurinisa** — Dadasi! U nima?

**Mo'min** — (cho'chib) A?

**Xurinisa** — Nima, deyapman. Ayting. Menga aytmasangiz kimga aytasiz? Axir ne niyatda bir yostiqqa bosh qo'ygan xotiningizman.

**Mo'min** — (hushyor tortib) Nodir, kizim, bu yoqqa kelinglar. Men eng razil, eng pastkash odamman. Yurtning tuzini ichib, tuzlig'iga tupurgan odamman. Mana bu xaltadagi hammasi — oltin.

**Nodir** — Oltin?

**Zuhra** — Oltin?

**Mo‘min** — Mana shu devorni buzayotganimizda topdim.

**Xurinisa** — Ana aytdim-ku, bu odamga devorning jinlari yopishgan, deb.

**Mo‘min** — Men uni topib oldim. Mendan Abdusalom xiylai-nayrang qilib olib ketmoqchi. Yo‘k, men buni dav-latga topshiraman.

**Xurinisa** — (shangillab) Soppa-sog‘ yurgan odam bir kunda jinni bo‘lib o‘tirsaya. O‘zim aytdim-a! Devorni buz-mang, bir kori hol bo‘lmasin dedim-a. Er degan xotinning gapiga kirsam. Endi nima bo‘ladi? Xotinning so‘ziga kirma-gan erning ahvoli shu.

**Nodir** — Bo‘ldi, oyi, hamma uxlab yotibdi.

**Mo‘min** — Yo‘q, buni men birovga bermayman. Davlatga topshiraman. (Pauza) Xotin. beri kel. Bir fikr bor. Yarmini olib qolsak nima deysan? Kim bilib o‘tiribdi? Bir kunimizga yaraydi-ku! Qayerga berkitamiz?

**Xurinisa** — Menga bering, menga.

**Mo‘min** — Yo‘q, oltinni xotin kishiga ishonib bo‘ladimi, yo‘q.

Xurinisa xaltani tortib oladi. Xaltadan toshlar to‘kiladi.

**Mo‘min** — Tosh, tosh? (Hushidan ketib yikiladi).

**Nodir** — Suv, suv olib kelinglar.

**Xurinisa** — Voy-dod, arslonimdan ayrilib koldim.

**Parda**

## IKKINCHI PARDA

### BIRINCHI MANZARA

Abdusalomning hovlisi. Ochiq derazadan uyning ichi ko‘rinadi. Bunda hamma narsa to‘satdan boy bo‘lib qolgan xonadonga mos. Eski, pastak uyga yarashmagan oyog‘i burama mebellar. Devorlarga katta-kichik gilamlar o‘xshovsiz osib tashlangan. Sandiq ustiga baxmal ko‘rpachalar taxlangan.

Dilorom hovli supurib yuribdi. Ko‘chaga mashina kelib to‘xtaydi. Katta samovar ko‘targan, gilam qo‘ltiqlagan Abdusalom harsillab kiradi.

**Dilorom** — Dadajon, qarigan chog‘ingizda nimalar qilib yuribsiz? Bu ahvolda uzilib qolasiz-ku.

**Abdusalom** — Eh, kizim, yoshsan-da, yoshsan. Axir men bularni sen uchun, sening baxting uchun qilyapman.

**Dilorom** — Menga bunaqa baxt kerakmas. Baxt mol-mulk bilan o‘lchanadimi?

**Abdusalom** — Sen baxtning nimaligini kayokdan bi-lasan? Qiyinchilik, kahatchilik ko‘rmagansan, boylikning qadriga yetarmiding. Axir men ne-ne og‘irchiliklarni ko‘rmadim. Ne-ne ocharchiliklarni boshdan kechirmadim. Ke-chani kecha, kunduzni kunduz demay bigiz o‘tkazdim, ip eshdim.

**Dilorom** — Otajon, men sizga ishonaman. Siz halol yashagansiz. Lekin mana shu bir hafta ichida butunlay o‘zga-rib koldingiz. Jon dadajon, rostini ayting, shuncha mol-dunyoni qayerdan olyapsiz?

**Abdusalom** — Xudo yetkazyapti. U rizqu nasibamizni beryapti.

**Dilorom** — Agar meni kizim desangiz, rostini aytasiz.

**Abdusalom** — Otasi o‘rgilsin. Uzumini yeng, bog‘ini surishtirmang.

**Dilorom** — Nima qilay, o‘zingiz menga halol uzum berib o‘rgatgansiz.

**Abdusalom** — Ha, barakalla. Haromning yuzi qursin. Haromdan hazar kilaman, kizim.

**Dilorom** — Bo‘lmasa nimaga shu e‘tiqodingiz bilan harom ishga qo‘l urdingiz? Nega el-yurt o‘rtasida haromxo‘r deb nom olgan zargar bilan apoq-chapok bo‘lib ketdingiz? Nima uchun yolg‘iz qizingizni mana shu mol-dunyoga sotdingiz? Nima, meni baxtli kilmoqchi bo‘ldingizmi?

**Abdusalom** — Ha.

**Dilorom** — Meni kechiring, dada, men ko‘ngil ko‘yiga yuradigan, otasining yuziga oyoq bosadigan kizlardan emasman. Lekin ortiq chidayolmayman. Men uyingizdan ketaman.

**Abdusalom** — Ketaman?

**Dilorom** — Ha, ketaman.

**Abdusalom** — Qayoqqa. O‘sha Nodir so‘tak bilanmi?

**Dilorom** — Ha, dada. O‘sha so‘tak Nodir siz aytgan Qilichbekka o‘xshagan yugurdaklarning mingtasidan afzal.

**Abdusalom** — Otangizning yuzini yerga qaratmang, qizim.

**Dilorom** — Yo‘q, dada. Sizning yuzingiz yerga qaramaydi. Qizingizni zargarining gumashtasiga unashib qo‘yib, evaziga shuncha mol-dunyo orttirib yana el o‘rtasida bosh ko‘tarib yurgan odam, qizi ketib kolsa yuzi yerga qaraydimi? Rost ayting, meni necha

pulga sotdingiz?

Suhbatni eshitib turgan Zuhra kiradi.

**Abdusalom** — Bo‘ldi, bas... Ana, o‘rtog‘ing kelib qoldi. Sen bilan keyin gaplashaman.

**Dilorom** — Dada, dada, to‘xtang. (Zuhrani ko‘rib) Zuhra. (Uni quchoqlab yig‘laydi.)

**Zuhra** — Eshitdim. Hammasini eshitdim. Men sening oldingga o‘z dardimni aytgani kelsam, sening darding menikidan o‘n chandon ko‘p ekan.

**Dilorom** — Chunki otamning kasali sening otang dardidan o‘n chandon zo‘r. Sening dadang-ku tuzalib kolar. Lekin mening otam-chi...

**Zuhra** — Qo‘y, o‘z qizini sotadigan otalar zamoni o‘tib ketgan. Undan ko‘ra ayt, kimga bermoqchi ekan?

**Dilorom** — Saidmalik zartarning gumashtasiga.

**Zuhra** — Voy, voy, kim ekan u, ko‘rdingmi?

**Dilorom** — Yo‘q, bugun kelarmish. Kim bo‘lsa xam oldimga solib quvlayman.

**Zuhra** — Unday qilma, kuyov bolani xafa qilish yaxshi emas. (Kuladi.)

**Dilorom** — Nimaga kulasan? Men o‘lay desam, bu kuladi.

**Zuhra** — Topdim. Bir ish kilamiz. Qulog‘ingni ber. (Shivirlaydi.)

**Dilorom** — Shayton-ey!

Kizlar chiqib ketgach, ko‘p o‘tmay yasanib olgan Qilichbek kirib keladi.

**Qilichbek** — Abdusalom aka, hoy Abdusalom aka. Bu uyda kim bor?

Nodir kirib keladi.

**Nodir** — Dilorom, Dilorom.

**Qilichbek** — (chetga) Qani, bir sinab ko‘ray-chi, muhabbati chinmikan. (Nodirga) Keling.

**Nodir** — O‘zingiz keling... O‘zlari kim bo‘ladilar?

**Qilichbek** — Biz Abdusalom akaga tegishli odam bo‘lamiz. O‘zlari-chi?

**Nodir** — Biz ham Abdusalom akaga tegishli odam bo‘lamiz.

**Qilichbek** — Tanishib ko‘yaylik. Biz Abdusalom akaga kuyov bo‘lamiz.

**Nodir** — Biz ham Abdusalom akaga kuyov bo‘lamiz.

**Qilichbek** — Qarindosh ekanmiz-da. Boja bo‘lar ekanmiz. (Ko‘rishib ketadilar.)

Qilichbek bir shisha kon‘yak va ikkita ryumka olib unga kon‘yak to‘ldiradi.

**Nodir** — So‘raganni aybi yo‘q, Abdusalom akaga anchadan beri kuyovmidilar?

**Qilichbek** — To‘g‘rirog‘i, endi kuyov bo‘lmoqchimiz. Yakinda to‘y bo‘ladigan. O‘zlari-chi?

**Nodir** — Biz xam endi kuyov bo‘lmoqchimiz. Abdusalom akaning qaysi jiyaniga uylanmoqchilar?

**Qilichbek** — Jiyaniga emas, qiziga.

**Nodir** — Men ham qiziga. Siz qaysi qiziga?

**Qilichbek** — Bilishimcha, Abdusalom akaning faqat bitta kizi bor, Diloromga.

**Nodir** — (xayol bilan) Men ham Diloromga?

Qadahlarni urishtirib ichadilar.

(Hushyorlanib) Kechirasiz, Siz adashmayapsizmi?

**Qilichbek** — Menimcha, siz adashayotgan bo‘lsangiz kerak. Chunki kecha kechqurun Abdusalom akaning roziligi bilan nikoh o‘qildi.

**Nodir** — Siz adashyapsiz. O‘sha Abdusalom akaning roziligi bilan Dilorom bilan bir hafta ilgari ZAGSdan o‘tganmiz.

**Qilichbek** — Ikkalamizdan bittamiz ortiqchamiz. Men tomonda shariat. Mana domlaning fatvosi.

(Cho‘ntagini qidiradi.)

**Nodir** — Men tomonda qonun. Mana ZAGS qog‘ozi. (Cho‘ntagidan olib ko‘rsatadi.)

**Qilichbek** — Abdusalom akani chaqiramiz.

**Nodir** — Diloromni chaqiramiz.

**Qilichbek** — Diloromning nima aloqasi bor? Qizini erga beradigan otasi.

**Nodir** — Erga tegadigan qizi. Diloromni chaqiramiz.



Shu payt Abdusalom kirib keladi. Unga peshvoz chiqqan Nodirga e'tibor qilmay, ataylab Qilichbek bilan quyuq ko'rishadi. Alam o'tgan Nodir shiddat bilan chiqib ketadi.

**Qilichbek** — Assalomu alaykum!

**Abdusalom** — Vaalaykum assalom, yaxshimisiz, uka, salomat bormisiz, omonmisiz, Qilichbek uka!

**Qilichbek** — Kuyovingiz bilan ko'rishmadingiz-ku!

**Abdusalom** — Ha, uni qo'yavering. Kecha dadasining oldiga kirsam meni haydab chikardi. Xo'sh, qani, bizga qanday xabarlar keltirdingiz? Qani, qani, o'ltiring.

**Qilichbek** — Men sizga qo'sh xabar bilan keluvdim. Qo'sh xabar — xush xabar.

**Abdusalom** — Qani, o'sha xush xabarning birinchisini eshitaylik.

**Qilichbek** — Birinchisi shuki, o'sha siz aytgan durdan o'n shoda topib qo'ydim.

**Abdusalom** — Nima? O'n shoda? Baraka toping, otasi o'rgilsin. Agar shundan keyin ham qizim ul-bul desa men unday kizdan kechib yuboraman. Xo'sh, ikkinchi xush xabarni eshitaylik.

**Qilichbek** — Ikkinchisi shuki, yana bir soatdan keyin xo'jayin kelar ekanlar. Zarur gaplari bor ekan. Hech qayoqqa ketmay turar ekansiz.

**Abdusalom** — Iye, iye, shuni birinchi xush xabar qilib aytmaysizmi, o'g'lim. Yoshsizda, yoshsiz. Xo'jayin keladigan bo'lsalar, o'z qo'lim bilan yaxshilab palovxonto'ra yasayman. Devzira guruchim ham bor. Lekin uyda sabzi yo'q edi. Siz o'tirib turing. Men guzardan tezda sabzi olib kelay.

Chiqadi. Boshiga kelin ro'molini yopgan Zuhra tamanno bilan kirib keladi. Dilorom panadan kuzatib turadi. Zuhra Qilichbek yakiniga kelib sekin yo'taladi.

**Qilichbek** — (uni Dilorom deb o'ylab) Dilorom.

**Zuhra** — (noz bilan) Qulog'im sizda.

**Qilichbek** — (o'zicha) Qanday nafis, kanday chiroyli ovoz. Omadingni qara, Qilichbek! (Zuhraga) Dilorom, men sizni ko'rishga ko'pdan beri mushtoq edim. Nihoyat yetishdim. G'oyat baxtiyorman.

**Zuhra** — Men ham baxtiyorman.

**Qilichbek** — Dilorom, uyalmang, boshingizni ko'taring, gul yuzingizga bir to'yib olay. Bu qaddi-qomat, bu ohu ko'zlar, bu qaldirg'och qosh faqat Diloromda bo'lishi mumkin. Dilorom. meni yaxshi ko'rasizmi?

**Zuhra** — Siz-chi?

**Qilichbek** — Yaxshi ko‘rmasam, ko‘yingizda sarson bo‘lib yurarmidim?

**Zuhra** — Voy, meni ko‘rmagan edingiz-ku.

**Qilichbek** — Sizni ko‘rmagan bo‘lmasam ham, xayolimda ko‘rganman. Sizni xuddi shunday tasavvur qilganman. Mana shunday qaddi-qomat, gul yuzingiz necha martalab tushimga kiradi.

**Zuhra** — Muxabbatingiz rostmi?

**Qilichbek** — Mening muhabbatim rost, ammo siznikiga shuhbam bor.

**Zuhra** — (kuladi) Xo‘sh?

**Qilichbek** — Nodir degan yigitni bilasizmi?

**Zuhra** — Akammi? (Daf‘atan roldan chiqib ketganini sezib labini tishlaydi.)

**Qilichbek** — Akam?

**Zuhra** — (gapni to‘g‘rilab) Voy, anavi Nodirmi? Men undan kechganman.

**Qilichbek** — (o‘zicha) Go‘zallarda vafo bo‘lmaydi, deb to‘g‘ri aytganlar. (Zuhraga) Tilingiz muncha shirin. Dilorom, bilasizmi, men sizni shunday yaxshi ko‘ramanki...

**Zuhra** — Gaplaringiz yolg‘on bo‘lsa-chi?

**Qilichbek** — Ont ichaman.

*Ont ichaman ko‘k-la, do‘zax-la,*

*Yer sanami, sen-la va haq-la.*

*Eng birinchi yoshing, ohingu*

*Eng oxirgi bir nigohingu,*

*Lablaringning gul damlari-la,*

*Ipak soching buramlari-la,*

*Ont ichaman aysh-la, kulfat-la,*

*Ont ichaman bor muhabbat-la.*

**Zuhra** — (ortiq chidolmay, yuzini ochib) Iblis!

**Qilichbek** — Topdingiz, Lermontov! Usmon Nosir tarjimasi!

**Zuhra** — Menga karang, ismingiz nima?

**Qilichbek** — Qilichbek.

**Zuhra** — Tavba, ko‘rinishdan tuppa-tuzuk odamga o‘xshaysiz-ku!

**Qilichbek** — Nima, sizga birov odam emas, deb aytdimi?

**Zuhra** — Siz qilayotgan ish inson qiladigan ish emas.

**Qilichbek** — Xo‘sh, men nima ish qilibman?

**Zuhra** — Siz, o‘g‘ri ekansiz.

**Qilichbek** — (qo‘rqib ketadi) A, ko‘rdingizmi?

**Zuhra** — Siz, baxt o‘g‘risi, muhabbat o‘g‘risi ekansiz.

**Qilichbek** — (engil tortib) Dilorom, siz meni kechiring. Menga ham oson emas. Men sizga hammasini tushuntirib beraman. (Mo‘minning ovozi keladi.)

**Zuhra** — Voy, dadam!

**Qilichbek** — I-e! Bu kishi sizning dadangiz emas-ku!

**Zuhra** — Har holda, bizni birga ko‘rishmasin. Xo‘p, xayr.

**Qilichbek** — Men sizni oqshomda xiyobonda kutaman.

Zuhra o‘rta eshikdan, Qilichbek tashqi eshikdan chiqishadi. Miltikli Mo‘min oltinlarni qidirib Abdusalomnikiga kirib keladi. Hammayoqni tita boshlaydi. Sabzilik to‘rxalta bilan Abdusalom kiradi.

**Abdusalom** — Ha, mulla Mo‘min, birovning uyiga so‘roqsiz kirib, tag‘in hammayoqni titganingiz nimasi?

**Mo‘min** — E, qari mushuk. Hozir joyiga qo‘yib qo‘y. Fig‘onim chiqib turibdi, bir narsa qilib qo‘yaman.

**Abdusalom** — Nima? Nimani joyiga qo‘yay?

**Mo‘min** — Oltinlarimni! Oltinlarimni!

**Abdusalom** — He, baqirma-ey, qo‘shnilar eshitadi.

**Mo‘min** — Eshitsa eshitaversin. Qo‘rqadigan yerim yo‘q. Qani, joyiga qo‘yib ko‘y!

**Abdusalom** — Ho‘, senga aytyapman, tilingni tiy. Ko‘p baqirma. (Uchoq yonidan kaftgirni olib Mo‘minga yaqin keladi.) Xuddi manavi bilan kallangdan deraza ochib ko‘yaman.

**Mo‘min** — Shunaqami? Bermaysanmi?

**Abdusalom** — Men olganim yo‘q.

**Mo‘min** — Bo‘lmasa, militsiyaga xabar qilaman. Hammasini aytaman.

**Abdusalom** — (yalinib) Jon og‘ayni, o‘tir. Meni ham, o‘zingni ham sharmanda qilasan. Mana hozir choy ko‘yaman, osh tayyor bo‘ladi, o‘tir, og‘ayni, o‘tir, bafurja gaplashamiz.

**Mo‘min** — (miltigini Abdusalomga to‘grilaydi)

Qo‘lingni ko‘tar!

**Abdusalom** — Hey, hey, nima qilyapsan, og‘ayni? Miltig‘ing otilib ketadi. (Yuziga kaftgirni to‘sadi.)

**Mo‘min** — Hozir mana shu molparast, haromxo‘r kora yuragingni teshib qo‘yaman.

**Abdusalom** — Shoshma, hey, shoshma. O‘lay agar, men sening oltiningni olganim yo‘q. Mayli, o‘zimni oltinimdan yarmini senga bera qolay. Lekin miltig‘ingni tushir.

Janjalni devor ortidan Saidmalik va Qilichbek kuzatib turadilar. Qilichbek asta orqadan kelib Mo‘minning burniga dori sepilgan ro‘molcha bosib, uni yikitadi. Mo‘min hushidan ketadi.

**Abdusalom** — (Qilichbekka.) Hey, nima qilib ko‘ydingiz?

**Qilichbek** — Landovur bo‘lmay keting. oz bo‘lmasa narigi dunyoga jo‘nar edingiz.

**Abdusalom** — (Qilichbek bilan birga Mo‘minni ko‘tarib ichkari uyga olib kirar ekan) Voy o‘rtog‘im, o‘rtog‘im-ey, o‘lib kolsa nima kilaman?

**Qilichbek** — Tashvish kilmang, besh-o‘n minutdan keyin o‘ziga kelib koladi.

Saidmalik kiradi.

**Abdusalom** — E, xo‘jayin kelib qoldilar-ku! Keling, keling!

**Saidmalik** — (Qilichbekka) Qilichbek, sen chikib tur. (Qilichbek chiqqach, Abdusalomga) Pulingizni olib keldim. (Xarid qilingan narsalarni ko‘rib) Mana bunaka narsalarga hirs ko‘yish yarashmaydi. O‘z ko‘lingizni o‘zingiz bog‘lab berasiz.

**Abdusalom** — (sekin chetga) E, puling ham qursin, o‘zing ham.

**Saidmalik** — Nima?

**Abdusalom** — O‘zim shundoq. Ey, xo‘jayin. Mo‘min oltinni yo‘qotib qo‘yibdi, agar sizlar olgan bo‘lsalaring joyiga ko‘yib qo‘yinglar.

**Saidmalik** — Uning oltinlari sizning xumchangizda, ko‘mgan yeringizda turibdi.

**Abdusalom** — Nima?

**Saidmalik** — Undan xavotir olmang, ertaga o‘z ko‘lingizdan sanab olaman.

**Abdusalom** — U militsiyaga boraman, arz qilaman, deyapti.

**Saidmalik** — Bormaydi, o‘zidan qo‘rkadi. Unda yurak bormi!

**Abdusalom** — E, o‘zi bormasa o‘g‘li boradi, o‘g‘li bormasa xotini boradi. Xotini yomon.

**Saidmalik** — Boshida o‘ylab ish kilish kerak edi.

**Abdusalom** — Endi nima qildik, xo‘jayin, buyog‘i nima bo‘ladi?

**Saidmalik** — (bir oz o‘ylab) Topdim. Uni jinniga chiqaramiz.

**Abdusalom** — A?

**Saidmalik** — Ikkita choyxonaga kirib aytsangiz, ertaga butun shahar biladi.

**Abdusalom** — Ishonisharmikin?

**Saidmalik** — Ishonishadi. Tilla jinnisi bo‘lib kolibdi, deng. Men hozir jinnixonaga telefon qilaman. Boplab adabini berishadi. (O‘rog‘liq qog‘oz uzatadi.) Mana, ushlang.

**Abdusalom** — Bu nima? (Ochib ko‘radi.) E, pul-ku!

**Saidmalik** — Pul, bardam bo‘ling.

**Abdusalom** — Qancha bu?

**Saidmalik** — Besh ming.

Chiqadi. Abdusalom uni kuzatib chiqadi. Hushiga kelgan karaxt Mo‘min asta-sekin sudralib uyiga chiqib ketadi.

**Parada**

IKKINCHI MANZARA

Mo‘minning hovlisi. Mo‘min, Xurinisa, Nodir, Zuhra, Matlab.

**Xurinisa** — Peshonam qursin, peshonam. Erimdan tirik ayrilib qoldim. Voy, endi nima qilaman?

**Mo‘min** — Nimaga dodlaysan? Mening qancha yolg‘on gaplarimga ishongansan. Nega endi bitta rost gapimga ishonmaysan?

**Xurinisa** — Sho‘rim qursin, sharmanda bo‘ldik. To‘y kilmay men o‘lay, devor buzmay siz o‘ling. Bundan ko‘ra kora yerga kirsam bo‘lmasmidi.

**Mo‘min** — Nodirjon o‘g‘lim. Quloq sol. Onangni qo‘yaver. Xotinlar shunaqa bo‘ladi. Men seni ne hasratda kiynalib katta kilganman. Onangga sut kelmaganda aptekadan sut olib boqqanman. Men jinnimanmi, o‘g‘lim, jinnimanmi?

**Nodir** — Bo‘ldi, dada, odamni qon qilib yubordingiz.

**Mo‘min** — Qizim, menga kara, qizim. Sen onangga tushuntirsang bo‘lmaydimi? Qizlar otalariga mehribon bo‘ladi, deyishadi-ku! Men jinnimanmi? Ug‘lim, Matlab-jon, sen aqlli-xushli, donishmand, dunyo ko‘rgan odamsan. Bu nodonlar qayerni ko‘rishibdi, sen tushuntir, men jinnimanmi?

**Matlab** — Yo‘q, siz jinni emassiz. Bir oz charchagansiz. Dam olsangiz tuzalib ketasiz.

**Mo‘min** — Tuzalib ketasiz?

**Matlab** — Ha.

**Mo‘min** — Voy, voy, bu kanday ofat, bu qanday balo. Ey parvardigor, kanday maxluqotlaring borki, jinni bilan sog‘ning farqiga borishmaydi?

**Nodir** — Bo‘ldi, dada, baqiravermang, jinni bilan sog‘ning farqiga hammamiz boramiz. Axir tilla bilan toshning ham farkiga boramiz.

Toshga aylangan tillani eslab Mo‘minning jazavasi tutadi.

**Mo‘min** — Tosh, tosh.

Mo‘min jinniga xos har xil qiliqlar qiladi.

**Xurinisa** — Voy, o‘lay.

**Mo‘min** — (birdan o‘ziga kelib) Manavi choynakmi? Manavi piyolami? Shular bormi? Shularning borligi qanday rost bo‘lsa, mening tilla topganim ham xuddi shunday rost. Men ahmoq bo‘lmasam, uni har qayerga berkitamanmi, sen ahmoqlarga ko‘rsatganimda... Voy-voy, million so‘mlik tilla edi-ya.

Mo‘min yana «Tosh, tosh» deb jazavaga tushadi va hushidan ketadi. Uni ko‘tarib yotqizishadi.

**Xurinisa** — Sharmanda bo‘ldik. **Nodir** — Doktorni chakirish kerak.

Oq xalat kiygan doktor kirib keladi. Hamma hayron.

**Doktor** — Taqa mahalla, 101-uy shumi?

**Zuhra** — Ha, ha, qayerdan bildingiz?

**Doktor** — Vazifamiz shu, bemor qani?

**Xurinisa** — O‘rgilay sizdan, baraka topgur. Erimni tuzatib bering, jon do‘xtir.

**Doktor** — Hozir tuzatamiz. Qani, to‘g‘rilab yotkizing bemorni.

**Xurinisa** — O‘rgilay, miyasi aynib qolgan.

**Doktor** — (Mo‘minning ko‘kragiga trubka qo‘yib) Nafas oling, chuqurroq nafas oling.

**Mo‘min** — Voy, men sog‘man.

**Doktor** — Ko‘zingizni oching.

**Mo‘min** — A? Ko‘zangizni oching, deysizmi? Ko‘za ham, oltin ham yo‘q.

**Doktor** — Tilingizni ko‘rsating.

**Mo‘min** — Tillangizni ko‘rsating? Aytdim-ku, tillalarni o‘g‘irlashdi.

Doktor sumkadan bahaybat shpritsni chiqarib ukol qilishga tayyorlanadi. Mo‘min ninani ko‘rib o‘rnidan turib qochadi. Hamma bir bo‘lib hovlini chir aylanib Mo‘minni quvlaydi. Mo‘min o‘zini uy ichiga uradi. Orqasidan yoshlar va doktor kiradi. Xurinisa eshik yonida. Ichkarida jimlik cho‘kadi. Mo‘min ingraydi. Eshikdan ichkariga qarab turgan Xurinisa ingrab yonboshini ushlaydi.

## **Parda**

### **UCHINCHI PARDA**

#### **BIRINCHI MANZARA**

---

Oqshom. Xiyobon. Zuhra va Dilorom.

**Dilorom** — Har xolda, uydan ketib qolganim yaxshi bo‘lmadi-da. Otam bechora kechadan beri ich-etini yeb qo‘ygandir-a.

**Zuhra** — Qizini sotmoqchi bo‘lgan otani shunaka qilib adabini berish kerak.

**Dilorom** — Menga qara, dadam sizlarnikiga kirmadimi?

**Zuhra** — Bizlarnikiga nima deb ham kirsin?

**Dilorom** — Ha, kiyin bo‘ldi, ikkalasiga ham qiyin bo‘ldi.

(Pauza)

**Zuhra** — Undan ko‘ra ayt, studentlar yotoqxonasi yoqdimi?

**Dilorom** — Juda soz. Ajoyib dugonalaring bor ekan. Biri biridan quvnoq, biri biridan mehribon... Ana, kelyapti. Menga qara, yaxshilab gaplashib ol. Hamma gapning tagiga yetishga harakat kil. Qulog‘ingda bo‘lsin. Bor.

Qilichbek kiradi. Soatga qaraydi.

**Zuhra** — To‘xta, kulib yuboraman.

(Kulgisi qistab, ogzini yopadi.)

**Dilorom** — Voy, kelishib olgan gaplarimiz nima bo‘ladi?

Zuhra kulgidan o‘zini to‘xtatolmaydi. Qilichbek yana soatga qarab keta boshlaydi. Majbur bo‘lib pistirmadan Dilorom chiqadi. Yo‘talib Qilichbekni o‘ziga qaratadi.

Salom...

**Qilichbek** — (hayron) Salom...

**Dilorom** — Meni tanimadingizmi?

**Qilichbek** — Yo‘q.

**Dilorom** — Men Diloromning dugonasi bo‘laman.

**Qilichbek** — E, shunaqami, tanishib qo‘yaylik, bo‘lmasa. (Ko‘l uzatadi.)

**Dilorom** — Zuhra.

**Qilichbek** — Dilorom kelmadilarmi?

**Dilorom** — Yo‘q. Diloromning eski kasali tutib koldi. Siz kutib qolmang deb, meni yubordi.

**Qilichbek** — Rahmat. (Pauza) Afsus, men Diloromga zarur bir gapni aytishim kerak edi.

**Dilorom** — Menga aytavering.



**Qilichbek** — Aytolmayman. Bu — oila siri.

**Dilorom** — Bilmaysizmi, biz Dilorom bilan bir odammiz. Bir tan, bir jon, bir vujudmiz. Mening taqdirim — uning taqdiri. Uning taqdiri — mening taqdirim. Endi tushungandirsiz?

**Qilichbek** — Tushundim, juda yaxshi o‘rtoq ekansizlar.

**Dilorom** — (chetga) Juda yaxshi tushunibsiz. (Qilichbekka) Menga ayting-chi, nega Saidmalik zargar bilan Diloromning otasini yo‘ldan urdinglar?

**Qilichbek** — E, bilsangiz edi. Axir men ham egalik kulman. Rostini aytsam, men Diloromga uylanmoqchi emas-man.

**Dilorom** — Uylanmoqchi emasman? Unday bo‘lsa bu tomoshaning boisi nima?

**Qilichbek** — Sizga aytolmayman. Men Diloromni ko‘rishim kerak. Diloromning otasi jar yoqasida turibdi.

**Dilorom** — A? (Kichqirib yuboradi va o‘zini fosh qiladi.) Dilorom shu yerda. U ro‘parangizda turibdi.

**Qilichbek** — Sizmi? Nahotki!

**Dilorom** — Zuhra, bu yoqqa kel. (Zuhra keladi.) Bu Zuhra, men Diloromman.

**Qilichbek** — Bu tomoshaning boisi nima?

**Dilorom** — Bu tomoshaning boisi — tuzoq. Menga karang, otam qanaqa jar yokasida turibdi? Ayting.

**Qilichbek** — Men tuzoq ko‘ydim bировga, Oqibat tushdim o‘zim...

**Dilorom** — She’rxonlikning payti emas.

**Qilichbek** — Xo‘p, mayli. Meni boplab qo‘lga tushirdinglar. Men hammasini tushuntirib beraman. Gap bunday...

Chiqadilar. Abdusalom va Matlab kiradilar.

**Abdusalom** — Hamma ayb zargarda. Meni yo‘ldan ozdirgan o‘sha zargar. Men qolgan umrimni toat-ibodat bilan o‘tkazsam deb yuruvdim. Xudoning yo‘lida topgan-tutganimni sarf qilib, Ka’batulloga bosh ursam degan edim.

**Matlab** — Sizni yo‘ldan ozdirgan narsa aslida o‘sha oltin. Uni sariq iblis deb bekorga aytishmagan. Aynul insan la yushbiu illa bitturab ba’d al mavt.

**Abdusalom** — Bu nima, oyatmi yo hadis?

**Matlab** — Bu arab maqoli, ko‘zning ochligini faqat tuproq to‘ldiradi.

**Abdusalom** — Endi, ukajon, bundan buyon siz mening pirim bo‘lasiz. Shuncha qilgan iltijolarim bekor ketmadi, sizni topdim. Menga rahnamo bo‘ling. Xudo yetkazgan davlatni o‘ziga sarf qilaman degan niyatim bor. Jon uka, bir yo‘l qilib meni Ka‘batulloga olib keting.

**Matlab** — Sizning e‘tiqodingizni juda hurmat o‘ilaman. Lekin Ka‘baga olib borolmayman.

**Abdusalom** — Nega?

**Matlab** — Peshona teri bilan topilmagan pulga haj qilib bo‘lmaydi. Hajga faqat halol mehnat bilan topilgan pul bo‘lishi kerak.

**Abdusalom** — E, ha... (Pauza) Bilasizmi, uka-jon, qizim topilsa edi. Menga yo‘l-yo‘rio‘ ko‘rsating, buyuring. Agar siz buyursangiz, narigi dunyoga ham piyoda boraman.

**Matlab** — Narigi dunyoga piyoda borishning hojati yo‘q. (Chetga) Odamlar ko‘tarib olib borib qo‘yishadi. (Abdusalomga) Agar mening aytganimni qilsangiz...

Chiqishadi.

## IKKINCHI MANZARA

Mo‘minning hovlisi. Abdusalom va Mo‘min. O‘rtada ko‘za.

**Mo‘min** — Shu niyating bor ekan, nimaga boshida mening gapimga kirmading?

**Abdusalom** — E, do‘stim, ko‘r ekanman. Endi ko‘zim ochildi. Matlabjon degan pirim ochdilar. Og‘ayni, meni kechir. Seni ham ancha xafa kildim.

**Mo‘min** — Mayli, o‘tgan ishga salovot.

**Abdusalom** — Menga qara, haligi zargar qolgan pullarni olib kelib, ko‘zadagi oltinlarni olib ketmoqchi edi. Endi nima bo‘ladi, a?

**Mo‘min** — Qo‘yaver, zargaring kelguncha oltinlar allaqachon davlatning xazinasida bo‘ladi, yur tezroq.

**Abdusalom** — Rost aytasan, yur, og‘ayni. E, shoshilma. Menga qara, loaqaqal birontasini olib qolaylik. To‘yga ishlatamiz. Axir narigi haftaga to‘y deb hammayoqqa aytib ko‘ydik.

**Mo‘min** — E, ko‘ysang-chi. Bittani olgan ham o‘g‘ri, o‘ntani ham.

**Abdusalom** — Bo‘lmasa, o‘tir, loaqaqal oxirgi marta bir sanaylik. Ko‘zimiz to‘yadi-ku,

oʻrtok.

**Moʻmin** — O, sanash u yokda tursin, buning ovozini eshitasam yurak oʻynogʻim tutib qoladi.

**Abdusalom** — Boʻlmasa, sen nariroq borib teskari karab tur, men oʻzim sanab olay. Bir koʻzim toʻysin.

**Moʻmin** — Mayli, oxirgi iltimosing ekan, sanasang sanay qol. Faqat tezroq boʻl, anavi alvasti kelib qolma-sin.

Abdusalom tirjayib endi chordona qurganda zargarning hovlisidan janjal ovozi keladi. Shafokat dod solganicha kirib keladi. Moʻmin, Abdusalom hayron.

**Shafokat** — (Moʻminga) Ha, nimaga bezrayib qarab turibsan, ber bu yoqqa marvaridlarimni, ber deypman. (Moʻminning yoqasidan tutganicha, Abdusalomga) Ha, moʻylovingga oʻt tushsin. Oʻzim ham aytgan edim, qayerdan yorugʻlik chiqdi deb. «Mayli, narsalaringizni biznikiga olib chiqib qoʻyaqoling» emish. Voy, yumshoq boʻlmay keting siz. Oʻgʻri! Qani, bu yoqqa ol marvaridlarimni.

Shafokat koʻzani Abdusalomdan tortib oladi. Saidmalik kiradi.

**Saidmalik** — Men bu muttahamlarni yaxshi bilaman. (Abdusalomga) Pulini bizdan olib, tillalarni hukumatga topshirmoqchimisiz? (Moʻminni koʻrsatib) Mana bu qip-qizil jinni. Ketdik, xotin.

Koʻzani olib eshikka karab yurishadi. Militsiya kiyimida Qilichbek kirib, Shafokat va zargarning yoʻlini toʻsadi.

**Shafokat** — Qilichbek?

**Saidmalik** — Qilichbek, bu nima hazil?

**Qilichbek** — Men Qilichbek emas, militsiya leytenanti Anvar Maqsudovman. Tanishib qoʻyaylik.

**Saidmalik** — Boʻlishi mumkin emas. Qilichbek inim.

**Qilichbek** — Qilichbek endi yoʻq. Mana hujjat. (Choʻntagidan qizil hujjat olib koʻrsatadi. Hamma hayron.)

**Saidmalik** — (oʻzicha) Saidmalik ham yoʻq. Tamom boʻldi. Oʻzi qazigan chuqurga oʻzi tushdi. (Qilichbekka) Men qoʻynimda qora ilon saqlab kelgan ekanman.

**Qilichbek** — Qora ilon? El xazinasi ustida kulcha boʻlib yotgan qora ilon aslida kim? Mana bu pokiza oilaning halol oshiga ogʻu solgan qora ilon kim? Oʻzlari emas-mi?

**Saidmalik** — Boʻhton. Hammasi boʻhton. Baribir isbot qilolmaysizlar.

**Abdusalom** — Mana men isbot qilaman.

**Qilichbek** — Agar Abdusalom aka isbot kilolmasa, mana bular isbot qiladi. (Choʻntagidan suratlar olib koʻrsatadi.) Mana bu eng oxirgi surat. Olaparning oldiga yotib, tirnoq bilan tuproq kovlayotganingiz.

**Saidmalik** — Men hech narsa olgan emasman. Bular meniki emas. (Abdusalomga) Mana, ol tillalaringni. Baribir isbot qilolmaysizlar.

**Qilichbek** — (Saidmalikka) Qani, oldimga tushing.

Qilichbek, Saidmalik chiqishadi

**Abdusalom** — (kesatib) Xayr. boshing toshdan boʻlsin.

**Shafobat** — Voy, qoʻshnijonlar, endi men nima qilaman?

**Abdusalom** — Battar boʻl.

**Shafobat** — Bor-e! Shuncha marvaridlarimdan ayrilgan, dangʻillama uchastka, erdan ham ayrilamanmi?

**Moʻmin** — Issigʻida bir yoshroq erga tegib ol. Shafobat chiqadi.

**Abdusalom** — Moʻminjon, ogʻayni, kirq yillik kadrdonim. Endi men oʻz boʻlagimdan kechdim. Mana bu xumchadagi oltinlarning hammasi sizniki, oling, olakoling.

**Moʻmin** — Axir bu sizniki edi-ku. Devor buzgan edingiz, oling.

**Abdusalom** — Sizning otangiz Xudoyorxonning sarbozi boʻlgan. Oltinlar sizniki, oling.

**Moʻmin** — Bekor gap, mening hech qanaqa sarboz buvam yoʻq. Mening otam kambagʻal oʻtgan. Ol, oltinlaringni.

**Abdusalom** — Mana bu paytava, mana bu kalishlar-chi?

Qilichbek kirib keladi.

**Qilichbek** — Tashvish kilmanglar. Tillangiz allaqachon davlatning poʻlat sandigʻida.

**Moʻmin** — A? E, qulluq-e, salomat boʻlsinlar! Tashvishdan ham qutulibmiz.

**Abdusalom** — E, oʻrtoq Anvarjon, menda sira ham ayb yoʻq. Hamma ayb oʻsha zargarda.

**Maqsudov** — Kechirasiz, Abdusalom aka, biz sizni qamoqqa olishimiz kerak.

**Abdusalom** — Nega?

**Maqsudov** — Siz el mulki bo‘lgan oltinni yashirdingiz. Yashiribgina qo‘ymay, davlat jinoyatchisi bo‘lgan Saidmalikka sotdingiz. Halol ko‘shningizni jinniga chiqardingiz. Yolg‘iz qizingiz baxtiga chang soldingiz. Uni sevmagan kishisiga, ya‘ni menga bermoqchi bo‘ldingiz. Axir men oilalik odamman. Qani, oldimga tushing.

**Mo‘min** — (Abdusalomga) Ha, ha, mana, endi jazongni topasan. Birovning holiga sen kulma zinhor, sening holingga ham kulguvchilar bor.

**Maqsudov** — (Mo‘minga) O‘z vaqtida xabar bermaganligingiz uchun sizni ham kamoqqa olamiz.

Mo‘min lol.

**Abdusalom** — (kesatib) Birovning holiga sen kulma zinhor, sening holingga ham kulguvchilar bor.

**Mo‘min** — Men nima qildim, militsiyajon. Meni qamamang. Menda ayb yo‘q. (Maqsudovning qat‘iy turganini ko‘rib) Mayli, nima qilsangiz o‘zingiz bilasiz. Ammo (Abdusalomni ko‘rsatib) mana bu odam bilan yonma-yon qo‘ymang. Shuncha yil yonma-yon turganimiz ham yetib ortadi.

**Maqsudov** — Yaxshi, yaxshi. Qani, yuringlar. Ikkalangizni alohida-alohida xonaga qo‘yamiz.

**Abdusalom** — Mo‘min oshna, har holda, qirq yillik qo‘shni edik, oshna edik, kel, oxirgi marta xayrlashib qolaylik. Xayr, og‘ayni. Salomat bo‘l. Eson-omon diydor ko‘rishaylik.

**Maqsudov** — Qani, oldimga tushinglar.

**Mo‘min** — Xotin qolib ketyapti-ku! Arsloningdan ayrilding, xotin.

**Abdusalom** — Qizim, jonim qizim, xayr. Loaqal qizimni bir marta ko‘rsam bo‘lardi.

**Maqsudov** — Mayli, oxirgi iltimosingizni bajaramiz.

Uning ishorasi bilan Xurinisa va barcha yoshlar kirishadi.

**Abdusalom** — (Diloromga) Jon qizim, otang o‘rgilsin, qizim.

**Mo‘min** — (xotiniga) Voy nozigim, nozigim.

**Xurinisa** — Nima bo‘ldi? Mana, men kelinimni topib keldim. Sizlarni dastingizdan mehmonxonada yotib yurgan ekan.

**Zuhra** — Mehmonxona emas, student qizlar yotoqxonasida.

**Xurinisa** — Baribir emasmi.

**Mo‘min** — E, xotin, nimalar deyapsan? Axir meni olib ketyapti-ku.

**Xurinisa** — (eshitmaydi) Mayli, mayli.

**Mo‘min** — (xunob) Nimasi mayli? O‘rtog‘im bilan meni militsiya qamoqqa olib ketyapti, garang!

**Xurinisa** — Voy, o‘lay.

Doktor kirib keladi.

**Doktor** — Salom, bemor qani?

**Mo‘min** — (Qochib xotining orqasiga yashirinadi.) Qamalib ketgan, qamalib ketgan.

**Doktor** — Manavi qog‘ozni olib qo‘ying.

**Mo‘min** — Qanaqa qog‘oz?

**Doktor** — Bu spravka.

**Mo‘min** — Bu dunyodan nasibam uzilib turibdi-ku, spravka deydi-ya.

**Doktor** — Bu qog‘oz sizning jinni emasligingiz haqida spravka. Ertaga jinnixonaga borib, jinnilar ro‘yxatidan o‘chib keling.

**Mo‘min** — Endi nima foydasi bor?

**Xurinisa** — Xayriyat, umringizdan baraka toping, doktor.

**Abdusalom** — (Diloromga) Jon qizim, otangning gunohini kechir, meni kechir!

**Dilorom** — Otajon, men-ku kechiraman, lekin xalq kechirarmikin?

**Abdusalom** — (xalqqa) Og‘aynilar, o‘rtoqlar, gunohimdan o‘tinglar.

**Dilorom** — (xalqqa) Kechiring.

**Nodir** — (xalqqa) Otalarimiz gunohini kechirishingizni sizdan so‘raymiz, odamlar!

Hamma —Kechiringlar.

**Nodir** — Bizga oltin ne kerak, oltin muhabbat birlamiz.

**Dilorom** — Pokiza ishq deb atalgan katta davlat birlamiz.

**Nodir** — Dilda yor birla diyor mehri misoli kimyo,

**Dilorom** — Yor ila munis diyorga chin sadoqat birlamiz.

**Maqsudov** — Elu yurtning tinchligidan ham ulug‘ ganj bormikan?

Elu yurt tinch bo‘lsa bizlar ham saodat birlamiz.